



O'ZBEKISTONDA ISTE'MOL JAMG'ARMA VA INVESTITSIYALARNING O'RNI

Shonazarova Maftuna Shuhratovna

Toshkent Kimyo Texnologiya Institut Talabasi

Ilmiy rahbar. PhD katta o'qituvchisi Mo'minova Dildora Dilshadovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari tahlil qilinadi. Iste'mol funksiyasining asosiy omillari, jamg'arish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar va investitsiya faoliyatining iqtisodiy o'sishdagi roli yoritiladi.

Kalit so'zi: Iste'mol, xarajat, jamg'arma, omonat, investitsiya, funktsiya, iqtisodiy barqarorlik, yalpi ichki mahsulot (YaIM), komponent, real foiz stavkasi, nominal foiz stavka, inflatsiya, kapital qo'yilmalar, makroiqtisodiy tahlil.

Iqtisodiy taraqqiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar jarayonidir. Ushbu uch tushuncha o'zaro bog'liq bo'lib, ular mamlakat iqtisodiy tizimining muhim bo'g'inlarini tashkil etadi. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish va iqtisodiy o'sishga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlarni tahlil qilish orqali iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari aniqlaydi. Milliy iqtisodiyotning yaratishdan hosil bo'lgan milliy daromad iste'mol va jamg'arish maqsadlarida ishlatiladi. Iste'mol, jamg'arma va investitsiya bu yalpi ichki mahsulotning ajralmas komponentlari hisoblanadi.

Iste'mol jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanishni bildiradi. Bunda unumli va shaxsiy iste'mol farqlanadi: Unumli iste'mol bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lib, ishlab chiqarish vositalari va inson ishchi kuchining iste'mol qilinishini, ya'ni ulardan ishlab chiqarish maqsadida foydalanish jarayonini anglatadi. Shaxsiy



iste`mol deganda, ishlab chiqarish sohasidan tashqarida ro`y berib, bunda iste`mol buyumlaridan bevosita foydalanish tushuniladi.

Iste`mol yakka tartibda va jamoa bo`lib iste`mol qilinadi. Alohida shaxsning o`z ixtiyorida bo`lgan ne`matlarni iste`mol qilishi yakka tartibdagi iste`mol qilishni, jamiyat a`zolari turli guruhlarining ne`matlaridan birgalikda foydalanishi jamoa bo`lib iste`mol qilishni bildiradi.

Jamg`arma – bu aholi, korxonalar yoki firma daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to`planib borishidir.

Iste`mol va jamg`arma bir – biriga bog`liq ravishda jamiyat iqtisodiga muhim ta`sir ko`rsatadi. Iste`mol va jamg`arma darajasini belgilab beruvchi asosiy factor milliy daromad hisoblanadi. Milliy daromad tarkibida turli soliqlar ham mavjud bo`lganligidan aholi to`lagan soliqlaridan tashqari qoladigan daromadlar iste`mol sarflari va jamg`arma yig`indisiga teng bo`ladi. Bu o`z navbatida ixtiyordagi yoki sof daromad deb ataladi.

Iste`mol va jamg`arma hajmi hamda unga ta`sir ko`rsatuvchi omillar o`rtasidagi bog`liqlik iste`mol va jamg`arma funksiyasi deyiladi. Iste`mol va jamg`arish funksiyalari makroiqtisodiyotning asosiy tushunchalaridan biri bo`lib, ular aholi va biznes subyektlarining daromadlarini qanday taqsimlashini ifodalaydi. Ushbu funksiyalar iqtisodiyotning umumiy talab va taklif muvozanatini tushunishda muhim o`rin tutadi.

Investitsiyalar yalpi ichki mahsulotning ikkinchi muhim komponenti hisoblanadi. Investitsiyalar, boshqacha qilib aytganda kapital qo`yilmalar – bu hali buyumlashmagan, ya`ni moddiy ne`matga aylanmagan lekin ishlab chiqarish vositalariga yo`naltirilgan kapitaldir. O`zining moliyaviy shakliga ko`ra, ular foyda olish maqsadida xo`jalik faoliyatiga qo`yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy mohiyatiga ko`ra investitsiyalar yangi korxonalar qurish, uzoq muddat xizmat ko`rsatuvchi mashina va asbob-uskunalarini yakuniy sotib olishga hamda shu bilan



bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Shuningdek investitsiyalar tarkibiga uy-joy qurilishiga ketgan xarajatlari ham kiritiladi.

Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Masalan, daromadning ortishi iste'molni oshiradi, shu bilan birga jamg'arish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Jamg'arish esa o'z navbatida investitsiyalarga yo'naltiriladi va iqtisodiy o'sishga sabab bo'ladi. Agregat talab va taklif o'rtasidagi muvozanat ushbu funksiyalarning barqarorligini ta'minlaydi.

O'zbekistonda Iste'mol, Jamg'arma va Investitsiyalarning makroiqtisodiy o'rni

Yalpi iqtisodiyotda iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan va tarkibiy islohotlar davrini kechirayotgan iqtisodiyotda bu uchala omilning muvozanati barqaror iqtisodiy o'sishni (YIM o'sishini) ta'minlashning eng muhim shartidir. O'zbekiston iqtisodiyoti misolida bu jarayonlarning tahlili quyidagicha namoyon bo'ladi: Iste'mol aholining o'z ehtiyojlarini qondirish uchun tovar va xizmatlarni xarid qilish jarayonidir. O'zbekistonda aholi sonining o'sishi (demografik dividend) va jon boshiga tushadigan daromadlarning oshib borishi fonida ichki iste'mol bozori juda jadal rivojlanmoqda. Oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj tovarlari: Iste'mol xarajatlarning salmoqli qismi oziq-ovqat tarmog'iga to'g'ri keladi, bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini oshirishini rag'batlantiradi. Iste'mol kreditlari: Tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan iste'mol kreditlari (avtokreditlar, muddatli to'lovlar) aholining xarid qobiliyatini sun'iy ravishda oshirib, qisqa muddatda yalpi talabni kuchaytirmoqda. Jamg'arma (Savings) — Ichki investitsiyalar manbai

Jamg'arma daromadning iste'mol qilinmagan qismidir. O'zbekiston moliya bozorida jamg'armalarni shakllantirishning eng asosiy institutsional vositasi — tijorat banklaridagi omonatlardir. Bank tizimidagi jozibadorlik: Hozirgi kunda O'zbekiston banklarida milliy valyutadagi muddatli omonatlar bo'yicha foiz stavkalari yuqori shakllangan (markaziy bank asosiy stavkasi va inflyatsiya



darajasidan kelib chiqib). Bu aholi o'zining bo'sh pul mablag'larini yostiq ostida (soya iqtisodiyotida) emas, balki rasmiy moliya tizimida saqlashini rag'batlantiradi. Korxonalar jamg'armalari: Yirik sanoat korxonalari (masalan, kimyo va neft-kimyo sanoati korxonalari) o'z foydasining bir qismini taqsimlamay, kelgusi texnologik modernizatsiya uchun jamg'arib borishi ham iqtisodiyot uchun muhim kapital manbai hisoblanadi. Investitsiyalar (Investments) — Uzoq muddatli o'sish dvigateli

Iqtisodiyotda jamg'armalar samarali bank-moliya tizimi orqali yig'ilib, real sektorga investitsiya sifatida yo'naltiriladi. O'zbekistonda investitsiyalar iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning asosiy vositasidir. Sanoatni modernizatsiya qilish: Olingan investitsiyalar hisobiga kimyo sanoati (yangi mineral o'g'itlar va polimerlar ishlab chiqarish), oziq-ovqat sanoati (qayta ishlash texnologiyalari) kabi tarmoqlarda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o'tish imkonini beradi Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash: Subsidiyalar, lizing operatsiyalari va imtiyozli bank kreditlari ko'rinishida xususiy sektorga kiritilayotgan kapital qo'yilmalar investitsion faollikni oshirmoqda.

Xulosa.

Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Masalan, daromadning ortishi iste'molni oshiradi, shu bilan birga jamg'arish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Jamg'arish esa o'z navbatida investitsiyalarga yo'naltiriladi va iqtisodiy o'sishga sabab bo'ladi. Agregat talab va taklif o'rtasidagi muvozanat ushbu funksiyalarning barqarorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vahobov A.V., Malikov T.S. "Moliya". Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya",
2. Shodmonov Sh.Sh., Rahmatov M.A. "Iqtisodiyot nazariyasi". Darslik. – T.: "Zamin nashr", 2021.



3. · Rasulov M. va boshqalar. "Makroiqtisodiyot". O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.

4. Muminova D. Improvement OF Marketing Communication Strategies in Chemical Industry Enterprises //Green Economy and Development. – T. 2. – №. 9. – С. 664966.